

" QO'SHIMCHA HISOBLANGAN BOJXONA TO'LOVLARINING FISKAL FAOLIYATDAGI O'RNI"

A.A.Shadmankulov

*Bojxona instituti Bojxona tartibga solinishi va bojxona to'lovlari kafedrası
boshlig'i, i.f.n. dotsent., b.x. podpolkovnigi.*

M.Jo'raboyev

Bojxona instituti kursanti.

Annotatsiya: *Maqolada O'zbekiston Respublikasida bojxona organlari tomonidan qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarining fiskal faoliyatdagi o'rni hududlar kesimida tahlil qilingan. Ushbu tahlillar asosida taklif va tavsiyalar berilgan.*

Tayanch so'zlar: *qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari, bojxona qiymati, bojxona to'lovlaridan imtiyozlar, tashqi iqtisodiy faoliyat, xalqaro standartlar, optimallashtirish*

KIRISH

Tashqi iqtisodiy faoliyatda bojxona siyosatini to'g'ri amalga oshirish tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarini qo'llab-quvvatlash, qulay investitsiya muhitini yaratish, mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon xo'jaligi tizimiga samarali integratsiyalashuvini ta'minlash bilan birga, davlat byudjeti daromadlar qismini oshirishga hamda iqtisodiy havfsizlikni ta'minlashga imkoniyat yaratadi. Bugungi kunda tizimda bojxona taomillari soddalashtirilib, amaldagi tartiblar yengillashtirilmoqda. Bojxona to'lovlaridan turli imtiyozlar berilib, soha yo'nalishida qo'shimcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi 4-moddasiga muvofiq bojxona to'g'risidagi qonunchilikdagi barcha bartaraf etib bo'lmaydigan qarama-qarshiliklar va noaniqliklar tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisining foydasiga talqin qilinadi. Tadbirkorlik subyektlarining bojxona rasmiylashtiruv uchun sarflaydigan vaqt va mablag'larini kamaytirish hamda tashqi savdo aylanmasi ortishi asnosida bojxona organlarining mavjud resurslaridan unumli foydalanish maqsadida, xalqaro standartlar talablari hamda rivojlangan mamlakatlar tajribalari asosida tovarlar bojxona postlarida asosan yashil va sariq yo'laklar orqali soddalashtirilgan bojxona nazoratidan o'tkazilmoqda. Bu o'z navbatida tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazoratini yanada samarali tashkil etishni taqozo etadi.


Demak, rasmiylashtiruv vaqtida bojxona xodimi bojxona to'lovlarini to'liq undirib olinishini ta'minlashi, tovarlar erkin muomalaga chiqarilgandan keyin o'tkaziladigan tekshiruvlarda bojxona to'lovlarini qo'shimcha hisoblashga hech qanday asos qoldirmasligi lozim bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, 2021-2024-yillarda qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari yuzasidan tahliliy ma'lumot keltirib o'tilgan.

Tadbirkorlik subyektlarining bojxona rasmiylashtiruvi uchun sarflaydigan vaqt va mablag'larini kamaytirish hamda tashqi savdo aylanmasi ortishi asnosida bojxona organlarining mavjud resurslaridan unumli foydalanish maqsadida, xalqaro standartlar talablari hamda rivojlangan mamlakatlar tajribalari asosida tovarlar bojxona postlarida asosan yashil va sariq yo'laklar orqali soddalashtirilgan bojxona nazoratidan o'tkazilmoqda. Bu o'z navbatida tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazoratini yanada samarali tashkil etishni taqozo etadi. Shu maqsadda va xalqaro standartlar talablari asosida Bojxona qo'mitasi tuzilmasiga tegishli o'zgartirishlar kiritilib, Bojxona auditi boshqarmasi tashkil etildi. Amalga oshirilgan o'zgarishlar natijasi o'laroq, 2024-yilning dastlabki 8 oyida qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarining miqdori ortib borayotanini ko'rishimiz mumkin (1-rasm).

¹

Qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari



1-rasm. Bojxona organlarida 2021-2024-yillarda qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari dinamikasi (mlrd. so'mda).

Bojxona qo'mitasining yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimlari

¹ Qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarining kelib chiqish sabablari va ularni oldini olish metodologiyasi / Uslubiy qo'llanma.

– T.: BI bosmaxonasi.

ma'lumotlari asosida olib borilgan o'rganishlar (8 oylik faoliyat) davrida jami 745 mlrd so'm qo'shimcha bojxona to'lovlari aniqlanib, 529,3 mlrd so'mi (71%) undirib olindi. Ushbu ko'rsatkichlar hududlar kesimida quyidagichani tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval

2024-yilning dastlabki 8 oyida qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari tahlili

№	Xududlar	Aniqlangan		Undirilgan	
		summa (mlrd so'm)	ulush (%da)	summa (mlrd so'm)	ulus h (%da)
1	Markaziy apparat	255,8	34%	75,1	29%
2	Andijon	101,4	14%	99,7	98%
3	Toshkent sh.	79,2	11%	68,3	86%
4	Toshkent AERO	57,6	8%	56,7	98%
5	Buxoro	56,8	8%	56,7	100%
6	Samarqand	39,6	5%	38	96%
7	Jizzax	26,1	4%	22,5	86%
8	Namangan	21,9	3%	17,7	81%
9	Xorazm	19,1	3%	15,7	82%
10	Toshkent viloyati	18,6	2%	14,5	78%
11	Sirdaryo	15,4	2%	15	97%
12	Navoiy	15,4	2%	15,1	98%
13	Farg'ona	12,4	2%	11,4	92%
14	Qashqadaryo	11,7	2%	9,5	81%
15	Qoraqalpog'iston	8,6	1%	8,4	98%
16	Surxandaryo	5,4	1%	5	93%
	JAMI	745,0	100%	529,3	100%

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib 2024-yilning dastlabki 8 oyida qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarining kelib chiqish sabablari: bojxona to'lovlaridan imtiyozlar, bojxona qiymati, tovarning TIF TN kodi, tovarning kelib chiqishi va boshqalar o'rganildi va ko'rsatib o'tildi.(2-jadval)

2-jadval

**2024-yilning dastlabki 8 oyida qo‘shimcha hisoblangan bojxona
to‘lovlarining kelib chiqish sabablari tahlili**

	Yo‘nalishlar	Kelib chiqish sabablari	BY D soni	Aniqlan gan summa, mlrd so‘m	Undiril gan summa, mlrd so‘m
1	Bojxona to‘lovlaridan imtiyozlar	17	1 814	317,2	159,2
2	Bojxona qiymati	22	7 368	140,0	137,1
3	Tovarning TIF TN kodi	7	1 688	90,9	81,7
4	Tovarning kelib chiqishi (Preferensiya)	15	236	22,8	17,8
5	Boshqalar	13	35 836	174,1	133,5
	JAMI	74	42 000	745,0	529,3

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarining kelib chiqish sabablari bo'yicha hududlar kesimida jadval tayyorlandi.

3-jadval

Qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarining hududlar bo'yicha tahlili (%)

№	Yo'nalishlar	Umumiy	Markaziy apparat	Andijon	Buxoro	Toshkent sh.	Samarqand	Toshkent AER	Xorazm	Jizzax	Toshkent viloyati	Namangan	Sirdaryo	Navoiy	Farg'ona	Qashqadaryo	Qoraqalpog'iston	Surxandaryo
1	Imtiyozlar	43	59	36	16	26	61	22	17	35	51	73	56	18	49	58	20	88
2	Bojxona qiymati	19	16	88	88	45	44	33	28	56	31	12	28	48	30	11	22	00
3	TIF TN	12	44	33	55	88	11	11	33	52	44	66	77	15	33	11	99	00
4	Preferiya	33	11	11	00	15	11	00	22	00	22	22	44	55	11	11	00	00
5	Boshqalar	23	20	12	71	66	12	74	11	77	11	88	66	44	88	29	19	66
	JAMI	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100

Qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarining kelib chiqish sabablari yuqoridagi jadvalda keltirilgan 5 ta asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Bojxona qiymati yo'nalishdagi sabablarning boshqa yo'nalishlardan farqi shundaki, mazkur yo'nalishga kiritilgan xatoliklar bojxona xodimining e'tiborsizligi, taqdim etilgan birlamchi xujjatlarni chuqur yoki umuman o'rganmasligi, hattoki rasmiylashtirilayotgan tovarning bojxona qiymatini o'zi xizmat olib borayotgan postda avvalgi rasmiylashtirilgan aynan bir xil tovarning bojxona qiymatiga ham solishtirib ko'rmasligi natijasida, umumiy qilib aytganda, xodimning mas'uliyatsizligi oqibatida yuzaga kelishi bilan ajralib turadi.

Bojxona to'lovlaridan imtiyozlar yo'nalishlar ichida o'zining ham dolzarbligi hamda qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarining miqdori jihatdan ham asosiy ulushni egallab kelayotgan yo'nalish sifatida bojxona

to'lovlaridan berilayotgan **imtiyozlarni** aytish mumkin. Bu yo'nalish o'z ichiga rasmiylashtiruv jarayonida imtiyozning noto'g'ri qo'llanilganligi hamda imtiyozdan belgilangan maqsadlarda foydalanilmaganligi holatlarini oladi.

Bojxona to'lovlaridan berilayotgan imtiyozlarda ba'zan tovarlarni tasarruf etilishi va foydalanilishi bilan bog'liq ayrim cheklovlar, talablar nazarda tutilgan bo'lib, bu kabi imtiyozlar odatda **maqsadli imtiyozlar** deyiladi va ulardan qonunchilikda ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalanilishi talab etiladi. Biroq, maqsadli foydalanish sharti bilan berilayotgan bunday imtiyozlarni nazorat qilishning samarali mexanizmi belgilab berilmagan.

Tovarning TIF TN kodi. Mazkur yo'nalishda bojxona rasmiylashtiruviga taqdim etilgan tovarlarning TIF TN kod raqami noto'g'ri belgilangan holatlar kiritilgan bo'lib, bu yo'nalishning o'ziga xos jixati shundaki, tovarning TIF TN bo'yicha kod raqami bevosita tovarning bojxona qiymatini, bojxona to'lovlari stavkalari yoki ularga nisbatan imtiyozlar berish, tovarlarni sertifikatlanishi yoki cheklovlarni ta'minlanishiga bog'liqdir.

Tovar kelib chiqish sertifikat. Mazkur yo'nalishida "Eng ko'p qulaylik rejimi" hamda "Erkin savdo rejimini yaratgan holda savdo-iqtisodiy hamkorlik sohasidagi bitim" imzolagan davlatlarda ishlab chiqarilganligini tasdiqlovchi "Tovarning kelib chiqishi sertifikat" belgilangan talablar asosida rasmiylashtirilmagan holatlarda ham tovarlarga import bojxona bojidan tarif preferensiyalari qo'llanilishi bilan bog'liq holatlar keltirilgan.

Boshqa holatlar. Yuqorida ko'rib chiqilgan 4 ta asosiy yo'nalishlarga kiritilmagan holatlar, xususan bojxona to'lovlari stavkalari noto'g'ri qo'llanilishi, valyuta kursining noto'g'riligi, deklaratsiyalanmagan tovarlar, davriy to'lov to'lanmagan (*Vaqtincha olib kirish rejimida*) yoki BYDning 47-grafasi (*Bojxona to'lovlari hisobi*)da noto'g'ri hisob-kitoblar natijasida qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari bilan bog'liq holatlar umumlashtirilgan holda ushbu yo'nalishga jamlandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

1. Tovarlarga bojxona to'lovlaridan to'g'ri imtiyoz qo'llanilganligini sinchkovlik bilan o'rganish, bunda imtiyozni amal qilish muddatiga, qo'llanish maqsadiga, tovarni bojxona to'lovlaridan ozod etiladigan tovarlar ro'yhatida mavjudligiga, imtiyozni qo'llash uchun vakolatli organlarning hujjatlari taqdim etilganligiga va imtiyozni qo'llash uchun qonunchilikda belgilangan alohida shartlarning bajarilganligiga e'tibor qaratish.

2. Tashqi ko‘rinishi bo‘yicha o‘xshash, lekin TIF TN kodi turlicha bo‘lganligi sababli imtiyozga tushadigan va tushmaydigan tovar juftliklariga diqqatni qaratish.

² Misol uchun Toshkent viloyatida faoliyat olib boruvchi "Finist invest" MCHJ tomonidan 2020-yilning oktyabr oyidan 2022-yilning fevral oyiga qadar jami vazni 1 459,2 tonna, qiymati 2.62 mln AQSH dollariga teng xom ashyolar (10,0 mlrd. so‘mlik imtiyoz qo‘llanilgan holda) import qilingan bo‘lsa-da, o‘tgan davr mobaynida ichki bozorga faqatgina 902,2 tonna, qiymati 2,86 mln AQSH dollariga teng bo‘lgan mahsulotlar eksportini amalga oshirgan. Ushbu MCHJ tomonidan bojxona to‘lovlaridan 3,6 mlrd. so‘mlik imtiyoz qo‘llanilgan 556,9 tonna xom ashyolar bo‘yicha qayta ishlash natijasida olingan tayyor mahsulotlar eksporti amalga oshirilmaganligi va MCHJ omborida ushbu mahsulotlar mavjud emasligi o‘z tasdig‘ini topib, Sudning 2023-yil 13-yanvardagi qarori asosida davlat Byudjetiga 3,6 mlrd. so‘m bojxona to‘lovlari undirish belgilangan. Mazkur qonun asosida import qilingan xom ashyo mahsulotlaridan maqsadli foydalanishning muayyan muddati belgilanmaganligi, mahsulotlaridan qonunda belgilangan maqsadda foydalanilishini nazorat qilish mexanizmi yo‘qligini bu kabi holatlarni kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

3. Tovarlarining bojxona qiymati haqqoniy belgilanganligini atroflicha tekshirish, bunda usullar ketma-ketligi to‘g‘ri tanlanganligiga, usullarni qo‘llash uchun qonunchilikda belgilangan talablarga to‘liq rioya qilinganligiga, yetkazib berish shartidan kelib chiqib bitim qiymatiga tegishli xarajatlarni qo‘shilganligiga, bitim qatnashchilari o‘rtasida bir-biriga bog‘liqligiga e‘tibor qaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksi.
2. A.A.Шадманкулов. “Некоторые вопросы механизма предоставления льгот по таможенным платежам”. Ж.: Ўзбекистон божхона ахборотномаси. 2024 йил махсус сони 36-41 бетлар.
3. A.A.Шадманкулов, Р.И.Хабибов. “Божхона тўловлари йиғилувчанлиги самарадорлигини баҳолашнинг айрим жиҳатлари”. Ж.: Молия ва банк иши. 2024 йил №2, 19-25 бетлар.
4. Гусейнова Г.М. Факторы, влияющие на эффективность взимания таможенных платежей. Ж.: Молодой учёный. №17, апрель 2023 г.

² Qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlarining kelib chiqish sabablari va ularni oldini olish metodologiyasi / Uslubiy qo‘llanma.
– T.: BI bosmaxonasi.